TRANSCHEGARAVIY ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN HUQUQIY MUNOSABATLARNING XALQARO XUSUSIY HUQUQ PREDMETI SIFATIDA TALQINI VA CEL EL ELEMENTINING TAVSIFLANISHI

Mardonov Fazliddin Oybek o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: mardonovfayz@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20027584

Annotatsiya: Ushbu maqolada transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarning xalqaro xususiy huquq predmeti sifatidagi tavsifi, xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq o'rtasidagi konseptual farqlar, chet el elementining uch asosiy ko'rinishi — subyekt, obyekt va yuridik fakt — ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada davlat immuniteti, funktsional yondashuv, lex loci damni kabi asosiy huquqiy institutlar va Trail Smelter, Vedanta v. Lungowe, Pakootas v. Teck Cominco kabi xalqaro sud pretsedentlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: transchegaraviy zarar, xalqaro xususiy huquq, chet el elementi, davlat immuniteti, kollizion norma, delikt majburiyat, lex loci damni, funktsional yondashuv, yuridik shaxs, sud pretsedenti.

I. KIRISH

Globallashuv jarayonining chuqurlashuvi natijasida davlatlar, transmilliy korporatsiyalar hamda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik munosabatlar tobora murakkab tus olmoqda. Xususan, bir davlat hududida sodir bo'lgan texnogen yoki texnologik halokatlar boshqa davlat hududida joylashgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki moddiy obyektlarga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazishi holatlari ortib bormoqda. Bunday holatlarda transchegaraviy zarar yuzaga keladi.

Mazkur transchegaraviy zararlar xalqaro xususiy huquq doirasida murakkab va ko'p qirrali huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi, chunki bunday holatlarda bir vaqtning o'zida bir nechta huquqiy tizimlar va yurisdiksiyalar o'zaro to'qnashuv nuqtasida birlashadi. Qo'llanilishi lozim bo'lgan qonun (kollizion norma), javobgarlik yurisdiksiyasi, zarar hajmi va xalqaro huquqiy yordam mexanizmlari kabi masalalar echimini topishi zarur.

Xalqaro xususiy huquqqa oid maxsus manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1158-moddasi[1] chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik huquqiy munosabatlar tushunchasini belgilaydi. Ushbu norma asosida transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar xalqaro xususiy huquqning tartibga solish doirasiga kirishi aniq.

Maqolaning maqsadi transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni xalqaro xususiy huquq predmeti sifatida ilmiy-tahliliy jihatdan ko'rib chiqish, xalqaro ommaviy huquqdan farqini ochib berish, chet el elementining uch ko'rinishini tavsiflab, amaliy sud pretsedentlari bilan mustahkamlashdan iborat. Tadqiqotda taqqoslama-huquqiy, tizimli tahlil va tarixiy-huquqiy metodlar qo'llanilgan.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUAMMONING O'RGANILISH DARAJASI

Transchegaraviy zarar masalalarini ilmiy jihatdan o'rgangan olimlardan Xue Hanqin o'zining fundamental tadqiqotida[2] ushbu tushunchani bir davlatda yuzaga kelib, boshqa davlat

[1] O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1158-modda. Lex.uz. URL: https://lex.uz/docs/-180552

[2] Xue H. Transboundary Damage in International Law. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – Vol. 27.

hududiga ta'sir qiluvchi atrof-muhitga yetkazilgan zarar sifatida ta'riflaydi. Uning yondashuvi xalqaro odat huquqi va konvension normalar o'rtasidagi munosabatni ochib beradi hamda transchegaraviy zararning huquqiy mexanizmlarini tahlil qiladi.

Huquqshunos olim J. Willisch xammuallif asarida[3] texnologik faoliyatdan kelib chiqadigan transchegaraviy zararning uch asosiy turini — ifloslanish, kosmik faoliyat oqibatlari va yadroviy qurollar sinovi natijasidagi zararlarni tasniflaydi. Willischning alohida tadqiqotida[4] davlatning xalqaro-huquqiy javobgarligi va texnologik zarar o'rtasidagi bog'liqlik puxta o'rganilgan.

O'zbek huquqshunosligida X.R. Rahmonqulov majburiyat huquqiga oid asarida[5] shartnomasiz majburiyatlar va delikt masalalarini tahlil qilgan. T.O. Xazratqulov esa delikt majburiyatlarning kollizion jihatlariga bag'ishlangan maxsus tadqiqotida[6] xalqaro xususiy huquq doirasidagi shartnomasiz majburiyatlarni keng ko'lamda o'rgangan.

Xalqaro normativ hujjatlar nuqtai nazaridan Xalqaro Huquq Komissiyasi (ILC) tomonidan 2001-yilda qabul qilingan Davlatlarning xalqaro jihatdan noto'g'ri harakatlari uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar loyihasi[7] va 2001-yilgi Xavfli faoliyatlar natijasida yuzaga keladigan transchegaraviy zararlarning oldini olish to'g'risidagi qoidalar loyihasi[8] transchegaraviy zarar huquqining asosiy normativ manbalari hisoblanadi. J.E. Read esa Trail Smelter ishini chuqur tahlil qilgan[9] va bu nizo xalqaro huquqda transchegaraviy zarar uchun davlat javobgarligining birinchi e'tirof etilishi sifatida baholanadi.

III. XALQARO OMMAVIY HUQUQ VA XALQARO XUSUSIY HUQUQ: TRANSCHEGARAVIY ZARAR KONTEKSTIDA FARQLANISH

Transchegaraviy zararlardan kelib chiquvchi huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasida ikkita asosiy yondashuv mavjud: xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq. X.R. Rahmonqulov ta'kidlaganidek,[10] xalqaro ommaviy huquqiy munosabatlar davlatlar, hokimiyat organlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy ya'ni ommaviy-huquqiy manfaatlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Bu esa xalqaro xususiy huquq doirasidagi yondashuvdan tubdan farq qiladi.

Xalqaro ommaviy huquqda asosiy subyektlar sifatida davlatlar e'tirof etiladi. Ular suveren huquqiy subyekt sifatida xalqaro-huquqiy majburiyatlarni qabul qiladi va o'zaro munosabatlarda suveren tenglik tamoyili asosida ishtirok etadi. Mazkur tamoyil davlat immuniteti institutida o'z ifodasini topadi: "par in parem non habet imperium" — ya'ni "o'zaro teng bir-birini ustidan hukm qilmaydi" qoidasi asosida hech bir davlat boshqa davlat ustidan sud yuritish vakolatiga ega emas.

Davlat immuniteti printsipi xalqaro ommaviy huquqning asosiy instituti sifatida transchegaraviy zarar yuzasidan xorijiy sud yurisdiksiyasida ish yuritishni sezilarli darajada

---

[3]Willisch J., Feldsieper M., Meimberg R. and Gross R. State Responsibility for Technological Damage in International Law. – Berlin: Duncker & Humblot, 2021. – Vol. 97.

[4]Willisch J. State Responsibility for Technological Damage in International Law. – Berlin: Erichsen, 1987. – P. 9, 33.

[5]Rahmonqulov X.R. Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). Magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYU, 2005.

[6]Xazratqulov T.O. Delikt majburiyatlarining kollizion masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuU, 2023. – 106-b.

[7]Draft Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts, ILC, 2001. UN Doc. A/56/10.

[8]Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities, adopted by the ILC on second reading in 2001. Art. 2. URL: https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/commentaries/9_7_2001.pdf

[9]Read J.E. The Trail Smelter Dispute. // Canadian Yearbook of International Law. – 1963. – Vol. 1. – P. 213–229.

[10]Rahmonqulov X.R. Xalqaro xususiy huquq. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYU, 2005. – 18-b.

cheklaydi. Natijada, zarar ko'rgan tomon ko'pincha da'vo arizasini davlatga emas, balki davlatga aloqador yoki mustaqil yuridik shaxslarga qarshi kiritadi.

Bundan farqli ravishda, xalqaro xususiy huquqda asosiy subyektlar sifatida jismoniy va yuridik shaxslar ishtirok etadi. Xalqaro xususiy huquq nuqtai nazaridan, transchegaraviy zarar — bu bir davlat hududida sodir bo'lgan noxush hodisa natijasida boshqa davlat hududida joylashgan yuridik yoki jismoniy shaxslarga zarar yetkazilgan holatdir. Bunday holatlarda zarar ko'rgan shaxs fuqarolik da'vo tartibida murojaat qiladi, kollizion normalar va milliy qonunchilik asosida ish ko'riladi.

Xalqaro ommaviy huquq doirasida nizolar odatda davlatlararo muzokaralar, vositachilik, xalqaro sudlar yoki arbitraj muassasalari — BMT Xalqaro sudi yoki Gaaga doimiy arbitraj sudi orqali hal etiladi. Xalqaro ommaviy huquqda bunday zararlar yuzasidan fuqarolik-protsessual vositalar orqali milliy sudlarda da'vo qo'zg'atish imkoniyati mavjud emas.

Shu bilan birga, xalqaro ommaviy huquqda davlatlar xalqaro shartnomalar — ikki tomonlama va ko'p tomonlama — orqali majburiyat qabul qiladi. BMT Nizomi[11] va boshqa universal hujjatlar shular jumlasidandir. Ushbu shartnomalar ratifikatsiya qilinishi yoki ularga qo'shilish orqali har bir ishtirokchi davlat uchun xalqaro huquqiy majburiyat xususiyatini kasb etadi.

Xalqaro ommaviy huquq bilan xalqaro xususiy huquq o'rtasidagi asosiy konseptual farq — nizolarni hal etish uslublari va tartiblarining tubdan farqlanishidadir. Transchegaraviy zarar kabi murakkab munosabatlar yuzaga kelgan holatlarda bu farqlar yanada yaqqol namoyon bo'ladi: xalqaro ommaviy huquqda mas'uliyat davlat zimmasiga yuklanadi, xalqaro xususiy huquqda esa bevosita yuridik va jismoniy shaxslar javobgar bo'ladi.

IV. TRANSCHEGARAVIY ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN HUQUQIY MUNOSABATDA CEL EL ELEMENTINING TAVSIFLANISHI

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1158-moddasida nazarda tutilganidek, transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik huquqiy munosabatlar jumlasiga kiradi. Chet el elementi xalqaro xususiy huquqning markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, u huquqiy munosabatning tarkibiy qismlaridan birida xorijiylik belgilarining mavjudligini anglatadi.

Transchegaraviy zarar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda chet el elementi uch asosiy holatda ifodalanadi: subyekt, obyekt va yuridik fakt. Ushbu uch element bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, birgalikda transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarning chet el elementi bilan murakkablashganligini namoyon etadi.

Ushbu huquqiy munosabatlar o'z tabiatiga ko'ra fuqarolik huquqiy munosabatlariga o'xshab ketadi — zarar va majburiyatning mavjudligi, tomonlarning teng huquqliligi, taraflarning shaxsiy manfaatlarini qondirishga qaratilganligi jihatidan. Biroq transchegaraviy zarardan kelib chiqadigan majburiyatning vujudga kelish asosi, unda qatnashuvchi shaxslarning huquqiy maqomi va qo'llanilish doirasi bilan fuqarolik huquqiy munosabatlardan farq qiladi.

4.1. Chet el elementi: huquqiy munosabat subyekti

Xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, davlat organlari va muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarning subyektlari sifatida e'tirof etiladi. Ular o'zlarining huquqiy maqomi va faoliyat yuritish doirasiga qarab, da'vogar yoki javobgar sifatida ishtirok etadilar.

Subyekt darajasida davlat va xalqaro tashkilotlarning huquqiy maqomini aniqlash muhim nazariy masala hisoblanadi. Huquqshunos olim Volodymyr Kakhnych ilmiy izlanishlarida[12]

---

[11] BMT Nizomi, 1945-yil 26-iyun, San-Fransisko. URL: https://www.un.org/en/about-us/un-charter

[12] Kakhnych V. Xalqaro xususiy huquqda subyektlar masalasi. // Xalqaro huquq jurnali. – 2019. – №3. – 45-b.

xalqaro xususiy huquq doirasida shaxslar va yuridik shaxslar bilan bir qatorda davlatlar ham subyekt bo'lishi mumkinligini, ayniqsa ular tijorat yoki shartnomaviy munosabatlarida "shaxsiy" rolini egallagan holda ishtirok etishini ta'kidlab o'tgan.

Biroq, asosiy xususiyat shundaki, xalqaro xususiy huquqda nizolar odatda davlatlar emas, balki jismoniy yoki yuridik shaxslar o'rtasida yuzaga keladi. Davlat xalqaro ommaviy huquqda to'laqonli subyekt bo'lsa-da, xalqaro xususiy huquqda u bevosita da'vogarlik yoki javobgarlik subyekti sifatida kamdan-kam holatlarda qatnashadi. Buning asosiy sababi — davlat immuniteti prinsipidir. Ushbu prinsipga ko'ra, bir davlat boshqa davlat sudlari yurisdiksiyasidan ozod bo'ladi, ayniqsa u o'zining suveren yoki ommaviy-huquqiy vakolatlarini amalga oshirgan holatlarda.

Xalqaro Huquq Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Davlatlarning xalqaro huquqqa zid harakatlari uchun javobgarligi to'g'risidagi loyihaviy maqolalarda davlatning to'g'ridan-to'g'ri javobgarligi bilan davlat nomidan faoliyat yurituvchi yuridik shaxslarning javobgarligi o'rtasidagi farq aniq belgilab qo'yilgan.

Xalqaro tashkilotlar ham immunitet maqomi, huquqiy javobgarlik doirasi va yurisdiksiya masalalari xalqaro shartnomalar va tashkilot nizomlari asosida cheklangan bo'lgani uchun xalqaro xususiy huquq kontekstida odatda bevosita javobgarlik subyekti bo'lib chiqmaydi.

Funktsional yondashuv (functional approach) printsipi esa shuni anglatadiki, davlat xalqaro xususiy huquq munosabatlarida bevosita xalqaro huquq subyekti sifatida emas, balki ma'lum bir faoliyat turi orqali ishtirok etadi. Davlatning imperium (hokimiyat vakolatlari) bilan bog'liq faoliyati emas, balki dominium (oddiy xo'jalik yoki mulkiy munosabatlardagi) faoliyati huquqiy baholash obyekti bo'ladi. Bunda "acta jure imperii" bo'yicha immunitet saqlanib, "acta jure gestionis" bo'yicha immunitetdan foydalanish mumkin emas.

Xalqaro xususiy huquqda transchegaraviy zarar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi asosiy subyektlar bu yuridik va jismoniy shaxslardir. Ayniqsa, transmilliy korporatsiyalar va ekologik faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar asosiy fuqarolik-huquqiy javobgarlik subyekti sifatida qaraladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutining asosiy mohiyati shundan iboratki, transchegaraviy zarar yetkazgan yuridik shaxs milliy sudlar yoki arbitraj organlari tomonidan javobgar etib belgilanishi mumkin. Amaliyotda ko'plab davlatlarning sud organlari xorijiy korporatsiyalarga nisbatan yurisdiksiya o'rnatishda "forum shopping" va "lex loci actus" kabi tamoyillardan ham foydalanadi.

Vedanta v. Lungowe (2019) ishida[13] Buyuk Britaniya Oliy sudi Afrika qit'asida faoliyat yurituvchi mahalliy filialning atrof-muhitga zarar yetkazishi uchun bosh kompaniyani o'z yurisdiksiyasi doirasida javobgar deb topdi. Bu pretsedent bosh kompaniyaning chet el filiallari faoliyati uchun javobgarligini mustahkamladi va xalqaro ekologik huquqda muhim o'rin egalladi.

Pakootas v. Teck Cominco Metals Ltd. ishida[14] AQShning to'qqizinchi apellyatsiya sudi 2016-yilda Teck Cominco Metals Ltd. kompaniyasining faoliyati Kanadada amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, zarar bevosita AQSh hududida yuzaga kelgani sababli, AQSh qonunchiligi (CERCLA) asosida ish yuritish imkoniyati mavjud deb topdi. Sud CERCLA qonunni xorijiy tashkilotga nisbatan qo'llanilishi mumkinligini tasdiqladi. Mazkur pretsedent nodavlat xorijiy yuridik shaxslar o'z faoliyati oqibatida boshqa davlat hududida yuzaga kelgan ekologik zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkinligini amalda ko'rsatib berdi.

Xalqaro arbitraj mexanizmlari ham korporatsiyalarning javobgarligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, xalqaro investitsiya arbitrajlari doirasida davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar buzilgan taqdirda korporatsiyalar ham mustaqil huquqiy subyekt sifatida javobgarlikka tortilishi mumkin.

---

[13]Vedanta Resources Plc and Another v. Lungowe and Others [2019] UKSC 20. Buyuk Britaniya Oliy sudi.

[14]Pakootas v. Teck Cominco Metals Ltd. U.S. Court of Appeals for the Ninth Circuit. 2016. 905 F.3d 565 (9th Cir. 2016).

4.2. Chet el elementi: huquqiy munosabat obyekti

Transchegaraviy zarar yetkazilishi natijasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda obyekt asosiy element sifatida ajralib turadi va da'vo mazmunini belgilashda, sud yurisdiksiyasini aniqlashda hamda zarar o'rnini qoplash masalasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xalqaro xususiy huquq nuqtai nazaridan, huquqiy munosabatning obyekti — bu zarar yetkazilgan huquqiy manfaat yoki huquqiy qadriyatdir.

Mulkiy manfaatlar obyekti ko'chmas va ko'char mulk, ishlab chiqarish vositalari, transport vositalari, infratuzilma obyektlari va boshqa aktivlarni o'z ichiga oladi. Mulkiy manfaatlarga zarar yetkazilishi bilan bog'liq transchegaraviy huquqiy munosabatlarga misol sifatida Handelskwekerij G.J. Bier BV v. Mines de Potasse d'Alsace SA (C-21/76) sud pretsedentini keltirish mumkin.[15]

Mazkur ishda Frantsiyada joylashgan korxona faoliyati natijasida sho'r oqava suvlar Reyn daryosiga oqizilgan va buning oqibatida Niderlandiyada faoliyat yurituvchi Bier kompaniyasining ko'chatlariga zarar yetkazilgan. Ushbu pretsedent mulkiy manfaatlarga yetkazilgan zarar xalqaro xususiy huquq doirasida qanday tartibda ko'rib chiqilishi mumkinligini amaliy jihatdan ko'rsatib beradi. Shu tariqa, zarar ko'rilgan davlat sudi ham yurisdiksiyani amalga oshirishi mumkinligi tasdiqlangan.

Nomulkiy manfaatlar sifatida jismoniy shaxslarning sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, oilaviy sir tutilishi yoki ruhiy salomatligiga zarar yetkazilishi ko'zda tutiladi. Bu holatlar odatda ekologik ifloslanish, texnologik favqulodda vaziyatlar yoki zaharli moddalar tarqalishi bilan bog'liq da'volarda yuzaga chiqadi.

Trail Smelter arbitraj ishida[16] Kanadaning Britaniya Kolumbiyasida joylashgan metallurgiya zavodidan chiqayotgan sulfur dioksid gazlari AQSh hududiga o'tib, Vashington shtatidagi aholining mulki, erlari, sog'lig'i va yashash sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bir davlat hududida amalga oshirilgan xo'jalik faoliyati natijasida boshqa davlat hududidagi shaxslarning mulkiy hamda nomulkiy manfaatlariga zarar yetkazilgan vaziyatda davlatlarning xalqaro javobgarligi hal qilingan.

Atrof-muhit bilan bog'liq individual manfaatlar — fuqarolarning sog'lig'i, yashash muhiti sifatiga ta'sir etuvchi zararlar — ham muhim obyekt sifatida qaraladi. Tojikiston Alyuminiy zavodi (TALKO) tomonidan qo'shni respublikalar ekologiyasiga yetkazilayotgan zarar[17] bunday obyektlarning real misoli sifatida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan.

Tijorat va shartnomaviy manfaatlar — transchegaraviy faoliyat natijasida xalqaro shartnomalar buzilishi, yetkazib berish zanjirlarining uzilishi yoki ishlab chiqarishning to'xtashi oqibatida vujudga kelgan iqtisodiy zararlar — ham huquqiy munosabat obyekti sifatida tan olinadi.

Ekologik va texnologik xavf manbalariga aloqador xususiy manfaatlar — sanoat inshootlari, kimyoviy yoki radiatsion moddalardan foydalanuvchi korxonalar faoliyati natijasida sodir bo'lgan transchegaraviy zararlar, agar ular shaxs yoki tashkilotga bevosita zarar yetkazgan bo'lsa — xalqaro xususiy huquq doirasida muhokama qilinadi. Zarar jismoniy ifoda topgan oqibatlarda namoyon bo'ladi: havoning, suvning yoki tuproqning ifloslanishi, radioaktiv nurlanish, portlash, chiqindilarning oqib kelishi va boshqalar.[18]

---

[15]Handelskwekerij G.J. Bier BV v. Mines de Potasse d'Alsace SA (C-21/76). Yevropa Ittifoqi Adliya sudi. 1976-yil 30-noyabr.

[16]Trail Smelter Arbitration (USA v. Canada, 1938/1941). Reports of International Arbitral Awards, Vol. III, pp. 1905–1982.

[17]Samatov I., Umirov J., Akhmedov K. and Narboyev Z. Harmful effects of fluorine compounds on agricultural crops. // BIO Web of Conferences. – 2024. – Vol. 149. – EDP Sciences.

[18]Handl G. and Lutz R.E. (eds.) Transferring Hazardous Technologies and Substances. – London: Graham & Trotman, 1989. – P. 11–16.

Transchegaraviy zarar obyektining chegaraviy hududda joylashganligi yoki transchegaraviy ta'sir zonasi doirasida bo'lishi ushbu huquqiy munosabatlarni xalqaro xususiy huquq sohasi bilan bog'laydi. Da'vo predmeti sifatida zarar yetgan obyekt — chet elda joylashgan tabiiy resurs, aholi punktlari yoki shaxslarning mol-mulki — e'tirof etiladi. Bu holda zarar yetkazuvchi faoliyat bir davlatda amalga oshirilgan bo'lsa-da, zarar boshqa davlat hududida yuzaga keladi.

Shu jihatdan, transchegaraviy zarar yetkazilishidan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar ikki yoki undan ortiq davlatlarning manfaatlarini qamrab oladi. Bu esa zarar yetkazuvchi tomon mansub bo'lgan davlatga transchegaraviy zararlarni keltirib chiqarishiga sabab bo'lgan texnogen avariyalarni oldini olish choralari ko'rish, yuzaga kelgan zararni baholash va kompensatsiya to'lashni ta'minlash kabi majburiyatlarni yuklatadi.[19]

4.3. Chet el elementi: yuridik fakt

Yuridik fakt — bu huquq normalari bilan muayyan huquqiy oqibatlar bog'langan hayotiy voqea yoki xatti-harakatdir. Transchegaraviy zarar holatida yuridik fakt, odatda, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir nechta elementlardan iborat murakkab (kompozit) yuridik fakt sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi element: zarar yetkazuvchi xatti-harakat yoki harakatsizlik (yoki xavfli faoliyat yuritish holati) ko'pincha A-davlat hududida sodir bo'ladi. Ikkinchi element: zarar natijalari — moddiy, ekologik, sog'liq uchun yoki iqtisodiy — esa B-davlat hududida ro'y beradi. Uchinchi element: ushbu ikki faoliyatni bog'lab turuvchi sababiy aloqaning mavjudligi isbot qilinadi. To'rtinchi element: hodisaning transchegaraviy elementi (xorijiy element) kollizion normalarni ishga soladi.

Yuridik fakt sifatida "zarar yetkazish harakati yoki holati" nafaqat faollik (masalan, emissiya, tashlama, portlatish), balki harakatsizlik — xavfsizlik choralarini ko'rmaslik, monitoring va ogohlantirish majburiyatlarini bajarmaslik ko'rinishida ham yuzaga kelishi mumkin. Xavfli faoliyat (yadro energetikasi, kimyo sanoati, tog'-kon ishlari, transchegaraviy chiqindilarni tashish, gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiyasi) yuqori xavf manbai bo'lib, ko'plab huquqiy tizimlarda oshirilgan ehtiyotkorlik (due diligence) standartlarini[20] yoki ayrim hollarda obyektiv (aybsiz) javobgarlik rejimlarini ishga tushiradi.

1986-yildagi Chernobil atom elektr stansiyasi falokati yuridik faktning murakkab kompozit xususiyatini namoyon etgan muhim tarixiy misol hisoblanadi. Portlash sobiq Sovet Ittifoqi hududida sodir bo'ldi, ammo radioaktiv ifloslanish ko'plab Yevropa davlatlarida aniqlandi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari keng miqyosda zararlandi va taxminan 9 million kishi jabrlandi. Portlagan reaktorda taxminan 192 tonna yoqilg'i mavjud bo'lib, uning bir qismi atmosferaga tarqaldi.

Kosmik faoliyat sohasida Sovet Ittifoqining "Kosmos 954" sun'iy yo'ldoshining 1978-yil 24-yanvarda nazoratdan chiqib, Kanada hududiga qulab tushishi holati[21] yaqqol misol hisoblanadi. Sun'iy yo'ldosh parchalanib, 50 000 kvadrat kilometr hududga radioaktiv materiallar sochilib ketdi. Kanada 1972-yilgi Kosmik obyektlar sababli yetkazilgan zararning xalqaro

---

[19]Descamps H., Slabbinck R. and Bocken H. Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities. // International Documents on Environmental Liability. – 2008. – P. 333–337.

[20]Koivurova T. and Singh K. Due Diligence. // Max Planck Encyclopedia of Public International Law. – Oxford University Press, August 2022.

[21]Finch E.R. and Moore A.L. The Cosmos 954 Incident and International Space Law. // ABA Journal. – 1979. – Vol. 65. – P. 56.

javobgarligi to'g'risidagi konvensiya[22] va xalqaro huquqning umumiy prinsiplari asosida sobiq Sovet Ittifoqidan 14 million AQSh dollari miqdorida tovon talab qildi.[23]

1967-yildagi Torrey Canyon va 1978-yildagi Amoco Cadiz neft tankerlarining halokati[24] dengiz yo'li orqali neft tashish sohasidagi yuridik faktlarning transchegaviy xususiyatini ko'rsatadi. Amoco Cadiz tankerining 230 000 tonnalik xom neft yukini dengizga to'kishi tarixdagi eng yirik neft ifloslanishi falokati sifatida qayd etildi. Ushbu avariya Fransiyaga tozalash va kompensatsiya xarajatlari uchun 370 million fransuz frankiga tushdi.

Yadroviy qurollar sinovlari ham yuridik fakt sifatida muhim o'rin egallaydi. 1954-yilda AQSh Janubiy Tinch okeanidagi Enivetok Atolida yadroviy sinovlar o'tkazdi. Sinovlar natijasida yaponiyalik baliqchilar radiatsiyaga uchragan va AQSh hukumati Yaponiya hukumatiga 2 million AQSh dollari miqdorida kompensatsiya (ex gratia) to'lagan. Frantsiyaning Mururoa Atolida o'tkazgan yadroviy sinovlari esa Avstraliya va Yangi Zelandiyaning Xalqaro sudga da'vo kiritishiga sabab bo'ldi. 1963-yilgi Yadroviy qurol sinovlarini qisman taqiqlash to'g'risidagi shartnoma atmosfera, ochiq kosmos va suv ostida yadroviy sinovlar o'tkazilishini rasman taqiqladi va bu turdagi yuridik faktlarning transchegaraviy xususiyatini xalqaro miqyosda e'tirof etdi.

V. KOLLIZION NORMALAR VA LEX LOCI DAMNI PRINTSIPI

Transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarda kollizion normalarni qo'llash — qaysi davlatning huquqini qo'llash zarurligini aniqlash — hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. "Lex loci damni" printsipi — "zarar yuzaga kelgan joy huquqi" — xalqaro xususiy huquqda asosiy kollizion qoida sifatida keng qo'llaniladi.

Yevropa Ittifoqi darajasida lex loci damni printsipi Roma II Reglamenti[25] orqali mustahkamlangan. Mazkur Reglament zarar yetkazish bilan bog'liq majburiyatlarda asosiy kollizion qoida sifatida zarar yuzaga kelgan joy huquqini qo'llashni belgilaydi. Bu prinsip xalqaro xususiy huquqda alohida ahamiyatini saqlab kelmoqda, chunki u jabrlanuvchiga eng yaqin va samarali huquqiy himoya vositasini ta'minlaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 985-moddasi[26] g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozimligini belgilaydi. Ushbu norma transchegaraviy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan subyektning to'liq hajmda javobgar bo'lishi majburiyatini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 999-moddasi[27] esa faoliyati tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug'diradigan yuridik va jismoniy shaxslarning ushbu xavf manbai keltirib chiqargan zarar uchun javobgarligini tartibga soladi. Ular faqat zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch (fors-major) yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakati oqibatida yuzaga

---

[22]Convention on International Liability for Damage Caused by Space Objects, 1972. 961 UNTS 187.

[23]Foster W.F. The Convention on International Liability for Damage Caused by Space Objects. // Canadian Yearbook of International Law. – 1973. – Vol. 10. – P. 137–185.

[24]Rosenthal L. and Raper C. Amoco Cadiz and Limitation of Liability for Oil Spill Pollution. // Virginia Journal of Natural Resources Law. – 1985. – Vol. 5, No. 1. – P. 259–295.

[25]Regulation (EC) No 864/2007 of the European Parliament and of the Council of 11 July 2007 on the law applicable to non-contractual obligations (Rome II). OJ L 199, 31.7.2007.

[26]O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 985-modda. Lex.uz. URL: https://lex.uz/docs/-180552#-196564

[27]O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 999-modda. Lex.uz. URL: https://lex.uz/docs/-180552#-196564

kelganini isbotlay olsagina javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Mazkur norma transchegaraviy zarar holatlari uchun ham muhim huquqiy asos vazifasini o'taydi.

T.O. Xazratqulovning ta'kidlashicha, delikt majburiyatlar noqonuniy harakat (yoki harakatsizlik), zarar yetkazilishi va sababiy bog'liqlikning uch asosiy elementi mavjud bo'lganda yuzaga keladi. Transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarda ham mana shu uch element majburiy ravishda bo'lishi lozim: noqonuniy harakat yoki faoliyat, zarar yetkazilishi va sababiy bog'liqlik.

1992-yilgi Helsinki konvensiyasi[28] transchegaraviy suv oqimlari bilan bog'liq nizolarni tartibga solishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu konvensiya davlatlarga atrof-muhitga transchegaraviy zarar yetkazmaslik, oldini olish, kamaytirish va zararni baholash majburiyatlarini yuklaydi. BMTning 2001-yilgi Xavfli faoliyatlar natijasida yuzaga keladigan transchegaraviy zararlarning oldini olish to'g'risidagi qoidalar loyihasi esa "due diligence" — yetarli ehtiyot choralarini ko'rish majburiyatini xalqaro normativ darajada belgilagan.

O.N. Sodiqov fuqarolik huquqiga oid fundamental tadqiqotida[29] zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni shartnomadan tashqari majburiyatlarning bir turi sifatida tavsiflaydi. Bu tasniflash xalqaro xususiy huquq kontekstida ham o'z ahamiyatini saqlab, transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning delikt tabiatiga ilmiy asos yaratadi.

VI. MUHOKAMA VA HUQUQIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari bir necha muhim muammoni ko'rsatib turibdi. Birinchidan, xalqaro ommaviy huquqda davlat immuniteti tamoyili amal qilishi natijasida transchegaraviy zarar yetkazgan davlatga to'g'ridan-to'g'ri milliy sudlar orqali da'vo qo'zg'atish deyarli imkonsiz. Bu esa zarar ko'rgan tomonlarning huquqlarini himoya qilishda qiyinchilik tug'diradi. Xalqaro xususiy huquq vositalari orqali yuridik shaxslarga da'vo qo'zg'atish amaliy jihatdan samaraliroq yo'l sifatida e'tirof etiladi.

Ikkinchidan, kollizion normalarni qo'llashda qaysi davlat huquqini tanlash masalasi — zarar yetkazilgan joy (lex loci damni) yoki harakat amalga oshirilgan joy (lex loci actus) huquqi — aniq nizolarni hal qilishda turli natijalarga olib kelishi mumkin. Roma II Reglamentining lex loci damni prinsipini asosiy qoida sifatida belgilashi bu muammoni qisman hal etgan bo'lsa-da, hamma davlatlar uchun majburiy emas.

Uchinchidan, transmilliy korporatsiyalarning xalqaro maydondagi javobgarligini ta'minlash muammosi hali to'liq hal etilmagan. Vedanta v. Lungowe va Pakootas v. Teck Cominco kabi pretsedentlar ijobiy yo'nalishda bir qadam bo'lsa-da, turli yurisdiksiyalarda bosh kompaniyaning filiallar faoliyati uchun javobgarligi masalasi yagona yechimga ega emas.

To'rtinchidan, O'zbekiston milliy qonunchiligida transchegaraviy zarar masalalariga doir alohida norma mavjud emas. Fuqarolik kodeksining 985 va 999-moddalari umumiy zarar yetkazish va oshiqcha xavf manbai uchun javobgarlikni tartibga soladi, ammo ularning transchegaraviy o'lchovlarga moslashtirilishi zarur.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi. Milliy qonunchilikka transchegaraviy zarar masalalarini tartibga soluvchi alohida normalar kiritish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining Roma II Reglamentida mustahkamlangan lex loci damni prinsipi O'zbekiston xalqaro xususiy huquq mexanizmiga tatbiq etilishi, zarar yetkazish holatlarida tezkor xabardor qilish va zararni baholash tizimlarini shakllantirish ko'zda tutilishi lozim. Shuningdek, transmilliy korporatsiyalarning bosh kompaniyasi filiallar faoliyati uchun javobgarligini aniqroq belgilash va ikki tomonlama shartnomalar orqali xalqaro hamkorlikni kuchaytirish tavsiya etiladi.

---

[28]Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes. Helsinki, 17 March 1992. UNTS.

[29]Sadiqov O.N. Grazhdanskoye pravo Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik. Tom II. – Moskva: Infra-M, 2006. – S. 447.

VII. XULOSA

Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar o'z tabiatiga ko'ra chet el elementi bilan murakkablashgan bo'lib, xalqaro xususiy huquqning tartibga solish doirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1158-moddasi asosida ushbu munosabatlar xalqaro xususiy huquq predmeti sifatida tasniflash uchun yuridik asos mavjud.

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquqning transchegaraviy zarar masalalariga yondashuvlari tubdan farq qiladi. Xalqaro ommaviy huquqda nizolar davlatlararo diplomatik va xalqaro sud vositalari orqali hal etiladi, davlat immuniteti printsipi esa milliy sudlarda da'vo qo'zg'atishni qiyinlashtiradi. Xalqaro xususiy huquqda esa jismoniy va yuridik shaxslar milliy sudlar yoki arbitraj organlari orqali zarar uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgarlikka tortilishi mumkin.

Chet el elementi transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarda uch asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Subyekt jihatidan xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar, ayniqsa transmilliy korporatsiyalar asosiy javobgarlik subyekti hisoblanadi. Davlat xalqaro xususiy huquqda faqat funktsional yondashuv asosida, ya'ni tijorat faoliyatida immunitetdan cheklangan holda qatnashadi.

Obyekt jihatidan mulkiy, nomulkiy, ekologik va tijorat manfaatlari transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarning predmeti bo'la oladi. Yuridik fakt jihatidan esa bir davlatda amalga oshirilgan harakat (yoki harakatsizlik) bilan boshqa davlatda yuzaga kelgan zarar o'rtasidagi sababiy bog'liqlik transchegaraviy huquqiy munosabat uchun zarur asosni tashkil etadi.

Trail Smelter, Vedanta v. Lungowe, Pakootas v. Teck Cominco, Bier v. Mines de Potasse kabi xalqaro sud pretsedentlari yuridik shaxslarning transchegaraviy ekologik zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkinligini amalda tasdiqlagan. O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 985 va 999-moddalari milliy huquqiy asos sifatida xizmat qilsa-da, xalqaro huquq normalari bilan uyg'unlashtirish va transchegaraviy o'lchovlarga moslashtirish zarur.

Lex loci damni printsipi, due diligence majburiyatlari va "zarar yetkazmaslik" (no-harm rule) tamoyili xalqaro xususiy huquqda transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy vositalari hisoblanadi. Bu prinsiplarni milliy qonunchilikka to'liq singdirish davlatlararo ekologik xavfsizlikni ta'minlash va jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

Monografiyalar va darsliklar:

1. Xue H. Transboundary Damage in International Law. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – Vol. 27.
2. Willisch J., Feldsieper M., Meimberg R., Gross R. State Responsibility for Technological Damage in International Law. – Berlin: Duncker & Humblot, 2021. – Vol. 97.
3. Willisch J. State Responsibility for Technological Damage in International Law. – Berlin: Erichsen, 1987.
4. Rahmonqulov X.R. Xalqaro xususiy huquq. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYU, 2005.
5. Rahmonqulov X.R. Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). – Toshkent: TDYU, 2005.
6. Xazratqulov T.O. Delikt majburiyatlarining kollizion masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuU, 2023.
7. Sadiqov O.N. Grazhdanskoye pravo Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik. Tom II. – Moskva: Infra-M, 2006.
8. Handl G., Lutz R.E. (eds.) Transferring Hazardous Technologies and Substances. – London: Graham & Trotman, 1989.

Ilmiy maqolalar:

9. Kakhnych V. Xalqaro xususiy huquqda subyektlar masalasi // Xalqaro huquq jurnali. – 2019. – №3.
10. Read J.E. The Trail Smelter Dispute // Canadian Yearbook of International Law. – 1963. – Vol. 1. – P. 213–229.
11. Finch E.R., Moore A.L. The Cosmos 954 Incident and International Space Law // ABA Journal. – 1979. – Vol. 65.
12. Rosenthal L., Raper C. Amoco Cadiz and Limitation of Liability for Oil Spill Pollution // Virginia Journal of Natural Resources Law. – 1985. – Vol. 5, No. 1.
13. Foster W.F. The Convention on International Liability for Damage Caused by Space Objects // Canadian Yearbook of International Law. – 1973. – Vol. 10.
14. Koivurova T., Singh K. Due Diligence // Max Planck Encyclopedia of Public International Law. – Oxford University Press, 2022.
15. Descamps H., Slabbinck R., Bocken H. Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities // International Documents on Environmental Liability. – 2008.
16. Samatov I., Umirov J., Akhmedov K., Narboyev Z. Harmful effects of fluorine compounds on agricultural crops // BIO Web of Conferences. – 2024. – Vol. 149.

Xalqaro normativ hujjatlar:

17. BMT Nizomi. – San-Fransisko, 1945.
18. Draft Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts. – ILC, 2001. UN Doc. A/56/10.
19. Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities. – ILC, 2001. URL: https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/commentaries/9_7_2001.pdf
20. Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes. Helsinki, 17 March 1992.
21. Convention on International Liability for Damage Caused by Space Objects. 1972. 961 UNTS 187.
22. Treaty Banning Nuclear Weapon Tests in the Atmosphere, in Outer Space and Under Water. Moscow, 1963. 480 UNTS 43.

Yevropa Ittifoqi hujjatlari:

23. Regulation (EC) No 864/2007 of the European Parliament and of the Council on the law applicable to non-contractual obligations (Rome II). OJ L 199, 31.7.2007.

Milliy qonunchilik:

24. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 985-modda, 999-modda, 1158-modda. URL: https://lex.uz/docs/-180552

Sud pretsedentlari:

25. Trail Smelter Arbitration (USA v. Canada, 1938/1941). Reports of International Arbitral Awards, Vol. III, pp. 1905–1982.
26. Handelskwekerij G.J. Bier BV v. Mines de Potasse d'Alsace SA (C-21/76). Yevropa Ittifoqi Adliya sudi, 1976.
27. Vedanta Resources Plc and Another v. Lungowe and Others [2019] UKSC 20. Buyuk Britaniya Oliy sudi.
28. Pakootas v. Teck Cominco Metals Ltd. 905 F.3d 565 (9th Cir. 2016). AQShning to'qqizinchi apellyatsiya sudi.